



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 5**

**2026**

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TOLERANTLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA O'YINLARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI**

**Shakirova Muazzam Sodiqjon qizi**

Namangan davlat pedagogika instituti, magistrant

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda tolerantlik sifatlarini shakllantirishda o'yin faoliyatining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda o'yinlar bolalarning ijtimoiy moslashuvi, hamkorlik qilish, boshqalarni tushunish va hurmat qilish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi muhim vosita sifatida qaraladi. Rolli o'yinlar, didaktik o'yinlar va interaktiv mashg'ulotlar orqali bolalarda bag'rikenglik, sabr-toqat va ijtimoiy munosabat madaniyatini shakllantirish mexanizmlari asoslab beriladi. Shuningdek, o'yin texnologiyalarining bolalarning emotsional va ijtimoiy rivojiga ijobiy ta'siri yoritiladi. Natijada o'yin asosidagi yondashuv tolerantlikni rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligi aniqlanadi.

**Kalit so'zlar:** tolerantlik, maktabgacha ta'lim, o'yin faoliyati, pedagogik imkoniyatlar, ijtimoiy rivojlanish, rolli o'yin, bag'rikenglik, interaktiv metodlar.

## **ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИГР В ФОРМИРОВАНИИ КАЧЕСТВ ТОЛЕРАНТНОСТИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА**

**Шакирова Муаззам Содикжон кизи**

Наманганский государственный педагогический институт, магистрант

### **Аннотация**

В данной статье анализируются педагогические возможности использования игровых методов в формировании толерантности у детей дошкольного возраста. Игровая деятельность рассматривается как эффективное средство развития социальных навыков, взаимопонимания, сотрудничества и уважительного отношения к окружающим. Обосновывается роль ролевых, дидактических и интерактивных игр в формировании терпимости, эмоциональной устойчивости и культуры общения у детей. Особое внимание уделяется влиянию игровых технологий на социально-эмоциональное развитие дошкольников. В результате доказана эффективность игровых методов в развитии толерантности.

**Ключевые слова:** толерантность, дошкольное образование, игровая деятельность, педагогические возможности, социальное развитие, ролевые игры, терпимость, интерактивные методы.

## **PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR USING GAMES IN THE FORMATION OF TOLERANCE QUALITIES IN PRESCHOOL CHILDREN**

**Shakirova Muazzam Sodiqjon qizi**

Namangan State Pedagogical Institute, Master's student

### **Abstract**

This article examines the pedagogical potential of using games in developing tolerance in preschool children. Play-based learning is considered an effective tool for fostering social skills, cooperation, empathy, and respect for others. The study highlights the role of role-playing, didactic games, and interactive activities in shaping tolerance, emotional stability, and communication culture in children. Special attention is given to the impact of game-based methods on social and emotional development. The findings demonstrate that play-based approaches are effective in promoting tolerance in early childhood education.

**Keywords:** tolerance, preschool education, play-based learning, pedagogical potential, social development, role play, empathy, interactive methods.

Zamonaviy jamiyatda insonlar o'rtasidagi o'zaro hurmat, bag'rikenglik va ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlash muhim ijtimoiy-pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Globalizatsiya jarayonlari, madaniyatlararo aloqalarning kengayishi va ijtimoiy xilma-xillikning ortishi sharoitida tolerantlik sifatleri shaxs rivojlanishining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Shu nuqtayi nazardan, tolerantlikni

shakllantirish jarayoni bolalik davridan boshlab maqsadli tashkil etilishi zarur. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri bolalarda ijtimoiy munosabatlar, axloqiy qadriyatlar va xulq-atvor me'yorlari shakllanadigan muhim bosqich hisoblanadi.

Tolerantlik — bu boshqalar fikrini hurmat qilish, turli qarash va xulq-atvorlarni qabul qila olish, hamkorlik va o'zaro tushunishga asoslangan ijtimoiy sifatdir. Ushbu sifat bolalarda nafaqat muloqot madaniyatini rivojlantiradi, balki ularning emotsional barqarorligi va ijtimoiy moslashuviga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda tolerantlikni shakllantirish pedagogik jarayonning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash jarayonida o'yin faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. O'yin bolalarning tabiiy faoliyati bo'lib, ular orqali bola atrof-muhitni o'rganadi, ijtimoiy rollarni egallaydi va o'zaro munosabatlarga kirishadi. Aynan o'yin jarayonida bolalar hamkorlik qilish, boshqalarni tushunish, nizoli vaziyatlarni hal etish va ijtimoiy me'yorlarga rioya qilishni o'rganadi. Shu bois o'yinlar tolerantlik sifatlarini shakllantirishda samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Biroq amaliyotda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin faoliyatining imkoniyatlaridan to'liq va tizimli foydalanilmayotgani kuzatiladi. Ko'pincha o'yinlar faqat ko'ngilochar faoliyat sifatida tashkil etilib, ularning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi salohiyati yetarli darajada hisobga olinmaydi. Tolerantlikni shakllantirishga qaratilgan maxsus metodik yondashuvlar va o'yin texnologiyalarining tizimli qo'llanilishi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur holat maktabgacha yoshdagi bolalarda tolerantlik sifatlarini shakllantirish jarayonida o'yinlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu bois ushbu muammo dolzarb ilmiy tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda tolerantlik sifatlarini shakllantirishda o'yin faoliyatining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va ularni ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: tolerantlik tushunchasining nazariy asoslarini o'rganish, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy rivojlanish xususiyatlarini aniqlash, o'yin faoliyatining tarbiyaviy imkoniyatlarini tahlil qilish hamda tolerantlikni rivojlantirishga qaratilgan samarali pedagogik yondashuvlarni asoslab berish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tolerantlik sifatlarini shakllantirish masalasi pedagogika, psixologiya va ijtimoiy fanlar kesishgan nuqtada o'rganilib kelinmoqda. Ushbu muammo doirasida olib borilgan tadqiqotlar tolerantlikni shaxs rivojining muhim komponenti sifatida baholab, uni bolalik davridan boshlab shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi.

Mahalliy pedagogika ilmida maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasi va ijtimoiy rivojlanishi masalalarini o'rganishda F. R. Qodirova [1]ning ishlari muhim o'rin tutadi. U o'z tadqiqotlarida bolalarning ijtimoiylashuvi jarayonida o'yin faoliyati hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlab, aynan o'yin orqali bolalarda hamkorlik, o'zaro hurmat va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalari shakllanishini asoslaydi. Qodirova fikricha, o'yin — bu bolalar uchun ijtimoiy tajriba maktabi bo'lib, unda ular ijtimoiy munosabatlarni amaliy o'zlashtiradi.

Maktabgacha pedagogika nazariyasida Sh. A. Sodiqova [2] ham bolalarda axloqiy sifatlarini shakllantirish jarayoniga alohida e'tibor qaratadi. U tolerantlikni bolalarning ijtimoiy xulq-atvori va kommunikativ madaniyatining muhim elementi sifatida ko'rib, uni tarbiyalashda pedagogik muhit va faoliyatning to'g'ri tashkil etilishi muhimligini ta'kidlaydi. Sodiqovanning fikricha, bolalarda bag'rikenglik sifatleri faqat nazariy tushuntirish orqali emas, balki amaliy faoliyat orqali shakllanadi.

Xorijiy tadqiqotlarda tolerantlik va ijtimoiy-emotsional rivojlanish masalalari keng yoritilgan. Bu borada Lev Vygotskiy [3]ning qarashlari alohida ahamiyatga ega. U bolalar rivojlanishini ijtimoiy muhit bilan bog'lab, shaxsning ijtimoiy sifatleri muloqot va hamkorlik jarayonida shakllanishini ta'kidlaydi. Vygotskiy nazariyasiga ko'ra, bolalar tengdoshlari bilan o'zaro munosabatda bo'lish orqali boshqalarni tushunish va hurmat qilishni o'rganadi, bu esa tolerantlikning asosini tashkil etadi.

Bolalar psixologiyasini o'rganishda Jean Piaget [5]ning ishlari ham muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Piaget maktabgacha yosh davrini egosentrik fikrlash bosqichi sifatida tavsiflab, bolalarda boshqalarning nuqtayi nazarini tushunish asta-sekin rivojlanishini ko'rsatadi. Bu esa tolerantlikni shakllantirish uchun maxsus pedagogik ta'sir zarurligini anglatadi.

O'yin faoliyatining pedagogik imkoniyatlarini chuqur tahlil qilgan D. B. Elkonin [4] o'yinni bolalarning yetakchi faoliyati sifatida baholab, unda ijtimoiy rollarni egallash va ijtimoiy xulq shakllanishini asoslaydi. Elkoninning fikricha, rolli o'yinlar orqali bolalar boshqa insonlarning pozitsiyasini tushunishni o'rganadi, bu esa empatiya va tolerantlikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga

ega.

Zamonaviy tadqiqotlarda tolerantlikni shakllantirish ko‘proq social-emotional learning (SEL) [6] yondashuvi doirasida ko‘rib chiqilmoqda. Bu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar bolalarda empatiya, hamkorlik, o‘zini boshqarish va boshqalarni hurmat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali tolerantlikni shakllantirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy va axloqiy sifatlarni shakllantirish masalasi keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, tolerantlikni aynan o‘yin faoliyati orqali shakllantirish masalasi yetarli darajada tizimli yoritilmagan. Mahalliy tadqiqotlarda o‘yin faoliyatining umumiy pedagogik ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lsa-da, uning tolerantlikni rivojlantirishdagi aniq metodik mexanizmlari kam o‘rganilgan. Xorijiy tadqiqotlarda esa tolerantlik ko‘proq ijtimoiy-emotsional rivojlanish doirasida tahlil qilinib, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun maxsus o‘yin texnologiyalari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu sababli o‘yin asosida tolerantlikni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini kompleks o‘rganish mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Mazkur tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarda tolerantlik sifatlarini shakllantirishda o‘yinlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot jarayonida bir-birini to‘ldiruvchi bir necha metodlardan foydalanildi. Jumladan, pedagogik kuzatish metodi orqali tarbiyalanuvchilarning o‘yin jarayonidagi xulq-atvori, tengdoshlari bilan munosabati, hamkorlikka kirishishi va nizoli vaziyatlarga munosabati o‘rganildi. Suhbat va savol-javob metodi yordamida tarbiyachilar hamda bolalarning yoshiga mos tarzda ularning bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat va hamkorlik haqidagi tasavvurlari aniqlashtirildi. Tajriba-sinov ishlari orqali maxsus tanlangan o‘yinlar asosida tolerantlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik ta‘sir tashkil etildi. Shuningdek, taqqoslash va tahlil metodlari asosida tajriba va nazorat guruhlarida olingan natijalar qiyosiy o‘rganildi.

Tadqiqot bazasi sifatida Namangan shahridagi 36-sonli maktabgacha ta‘lim tashkiloti tanlandi. Tadqiqotda jami 37 nafar tarbiyalanuvchi ishtirok etdi. Ilmiy-pedagogik tajribaning ishonchligini ta‘minlash maqsadida tarbiyalanuvchilar tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Tajriba guruhida tolerantlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus o‘yinlar, rolli o‘yinlar, hamkorlikka asoslangan topshiriqlar va interaktiv mashg‘ulotlar qo‘llanildi. Nazorat guruhida esa ta‘lim-tarbiya jarayoni an’anaviy yondashuv asosida davom ettirildi.

Jadval 1. Tadqiqot ishtirokchilarining taqsimlanishi

Guruh turi	Tarbiyalanuvchilar soni	Tashkil etilgan faoliyat turi
Tajriba guruhi	19 nafar	O‘yinlar asosida tolerantlikni shakllantirishga qaratilgan maxsus mashg‘ulotlar
Nazorat guruhi	18 nafar	An’anaviy ta‘lim-tarbiya mashg‘ulotlari
Jami	37 nafar	—

Eksperiment uch bosqichda tashkil etildi. Birinchi bosqichda boshlang‘ich diagnostika o‘tkazilib, bolalarning bir-biriga munosabati, o‘yin jarayonidagi xulqi, navbat kutishi, o‘rtoqlashishi, hamkorlik qilishi va kelishmovchiliklarni hal etish darajasi kuzatildi. Ikkinchi bosqichda tajriba guruhida tolerantlik sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan didaktik, harakatli va rolli o‘yinlar tizimli ravishda joriy etildi. Uchinchi bosqichda esa yakuniy kuzatish va tahlil asosida tajriba natijalari umumlashtirildi hamda guruhlar o‘rtasidagi farqlar aniqlandi.

Baholash mezonlari sifatida bolalarda tolerantlik sifatlarini ifodalovchi quyidagi ko‘rsatkichlar belgilandi: tengdoshlariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lish, hamkorlikka tayyorlik, o‘rtoqlashish ko‘nikmasi, kelishmovchiliklarni tinch yo‘l bilan hal qilish, boshqalarni tinglay olish, sabr-toqat va bag‘rikenglik namoyon etish. Mazkur mezonlar asosida tarbiyalanuvchilarning rivojlanish darajasi past, o‘rta va yuqori bosqichlar bo‘yicha baholandi.

Tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarda tolerantlik sifatlarini shakllantirishda o‘yin asosidagi innovatsion yondashuvlarning samaradorligini yaqqol ko‘rsatdi. Tajriba va nazorat guruhlarida olib borilgan kuzatish va diagnostik baholash natijalari qiyosiy tahlil qilindi. Eksperiment boshida har ikki guruhda ham bolalarning tolerantlik darajasi deyarli bir xil bo‘lib, ko‘rsatkichlar o‘rtacha darajada qayd etildi. Tajriba guruhida o‘yin asosidagi metodlar (rolli o‘yinlar, hamkorlikka yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar, muammoli vaziyatlar) tizimli qo‘llanilgandan so‘ng bolalarning ijtimoiy xulq-atvorida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Nazorat guruhida esa an’anaviy metodlar qo‘llanganligi sababli o‘zgarishlar mavjud bo‘lsa-da, ular sezilarli darajada past bo‘ldi. Quyidagi jadvalda tolerantlik sifatleri belgilangan mezonlar asosida

boshlang'ich va yakuniy bosqichlarda qanday o'zgarish kuzatilgani keltiriladi:

Jadval 2. Tolerantlik sifatlarining o'zgarish dinamikasi (tajriba guruhi)

Mezonlar	Boshlang'ich (%)	Yakuniy (%)	O'sish (%)
Tengdoshlariga hurmat	52,3 %	65,0 %	+12,7 %
Hamkorlik qilish	50,8 %	63,9 %	+13,1 %
O'rtoqlashish ko'nikmasi	49,6 %	62,5 %	+12,9 %
Kelishmovchilikni hal qilish	48,9 %	61,8 %	+12,9 %
Boshqalarni tinglay olish	51,2 %	64,3 %	+13,1 %
Sabr-toqat va bag'rikenglik	50,5 %	63,4 %	+12,9 %
Umumiy o'rtacha ko'rsatkich	50,5 %	63,4 %	+12,9 %

Jadval natijalaridan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhida barcha mezonlar bo'yicha ijobiy o'sish kuzatilgan va umumiy samaradorlik 12,9 % ga oshgan. Bu o'sish quyidagi pedagogik omillar bilan izohlanadi:

- o'yin faoliyatining tabiiy va motivatsion xarakterga ega ekanligi;
- bolalarning faol ishtiroki va emotsional jalb etilishi;
- real ijtimoiy vaziyatlarni modellashtirish imkoniyati;
- hamkorlik va muloqot asosida o'rganish muhiti.

Tajriba guruhida bolalar o'zaro muloqot qilish, muammoli vaziyatlarda kelishuvga erishish va boshqalarni tushunish ko'nikmalarini faol ravishda namoyon eta boshladi. Nazorat guruhida esa o'zgarishlar mavjud bo'lsa-da, ular ancha past darajada bo'ldi. Natijada, o'yin asosidagi innovatsion yondashuvlar maktabgacha yoshdagi bolalarda tolerantlik sifatlarini shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Mazkur tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarda tolerantlik sifatlarini shakllantirishda o'yin faoliyatiga asoslangan innovatsion yondashuvlar yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, rolli o'yinlar, hamkorlikka yo'naltirilgan mashg'ulotlar va muammoli vaziyatlar orqali tashkil etilgan ta'lim jarayoni bolalarda ijtimoiy munosabat madaniyatini, o'zaro hurmat va bag'rikenglikni rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Tajriba natijalariga ko'ra, tajriba guruhida tolerantlik sifatleri ko'rsatkichlari 12,9 % ga oshgani aniqlanib, bu innovatsion yondashuvlarning samaradorligini yaqqol namoyon etdi. Bolalarda tengdoshlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, hamkorlik qilish, o'rtoqlashish, boshqalarni tinglash va nizoli vaziyatlarni tinch yo'l bilan hal qilish ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlandi. Bu esa tolerantlik sifatlarining maktabgacha yosh davridayoq shakllanishi mumkinligini ko'rsatadi.

Amaliy jihatdan quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi: maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tolerantlikni shakllantirishga qaratilgan o'yin texnologiyalarini tizimli ravishda qo'llash, tarbiyachilarni ushbu metodlar bilan ishlashga tayyorlash, bolalar uchun hamkorlik va muloqotga asoslangan pedagogik muhit yaratish zarur. Shuningdek, o'yinlarni faqat ko'ngilochar faoliyat sifatida emas, balki maqsadli tarbiyaviy vosita sifatida tashkil etish muhim hisoblanadi. Kelgusidagi tadqiqotlar tolerantlikni rivojlantirishning raqamli va multimedia asosidagi yangi usullarini ishlab chiqish, turli yosh guruhlarida ushbu jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish hamda uning uzoq muddatli ijtimoiy ta'sirini empirik jihatdan tahlil qilishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Bu esa maktabgacha ta'lim tizimida ijtimoiy-axloqiy tarbiyani yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qodirova F. R., Toshpo'latova Q., Qayumova N. M., Azimova M. N. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur, 2019. – 384 b.
2. Sodiqova Sh. A. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 320 b.
3. Выготский Л. С. Воображение и творчество в детском возрасте. – Москва: Просвещение, 1991. – 96 с.
4. Эльконин Д. Б. Психология игры. – Москва: Педагогика, 1978. – 304 с.
5. Piaget J. The Psychology of the Child. – New York: Basic Books, 2000. – 173 p.
6. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938. – 91 p.
7. Denham S. A. Emotional Development in Young Children. – New York: Guilford Press, 1998. – 254 p.